

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston davlat jismoniy
tarbiya va sport universiteti
Sport klubi raisi _____ N.I.Orinov
«_____» _____2026 yil

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida faoliyat olib
borayotgan ayol professor-o‘qituvchilar, ishchi xodimlar va tahsil olayotgan
talaba qizlar o‘rtasida tashkil etiladigan Fijital sportning “JUST DANCE”
turi bo‘yicha musobaqa
NIZOMI

I.Musobaqaning maqsadi.

1.1. Musobaqani o‘tkazishdan asosiy maqsad universitetda faoliyat olib borayotgan ayol professor-o‘qituvchilarni, ishchi xodimlarni va tahsil olayotgan talaba qizlarni bahorning ilk bayrami **“8-mart Xalqaro xotin qizlar kuni”** munosabati bilan ularga, bayramona kayfiyat ulashish va jismoniy faolliklarini yanada oshirish. Universitetimizning barcha bosqich talaba qizlari o‘rtasida Fijital sportning **“Just dance”** yo‘nalishi ommalashtirish orqali Respublika musobaqalariga saralash bosqichini o‘tkazish. Iqtidorli **“Just dance”** sportchilarini hamda jamolarini aniqlash. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va talaba yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda Fijital Just dance sport yo‘nalishini rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat.

1.1.1. Musobaqani o‘tkazishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: Yoshlarning elektron sport turlari bilan shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratib, yoshlarning aqliy hamda irodaviy faolligini oshirish;

1.1.2. Aqliy va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanish borasida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini oshirish;

1.1.3. Musobaqa orqali yoshlarning o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash.

II.Musobaqaga hakamlik qilish va o‘tkazish hududi.

2.1. Musobaqani o‘tkazish bosh hakam hamda hakamlar hay’ati zimmasiga yuklatiladi.

2.2. O‘tkazilish hududi: Musobaqa universitetning ma’daniyat saroyi va hududida bir necha bosqichda o‘tkaziladi.

III.Musobaqaning o‘tkazish shartlari.

3.1. Musobaqa quyidagi Fijital Just dance sport turi bo‘yicha tashkil etiladi: jamoaviy va yakka tartibda.

3.2. Fijital Just dance - turi bo‘yicha ishtirokchilar Ubisoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan **“Just dance: now”** dasturi rejimida bellashadi.

3.3. Musobaqada ishtirok etuvchilar internet tizimiga ulanish imkoniyati bo‘lgan qo‘l telefonlarini quvvati 100% to‘ldirib kelishlari hamda telefonida internetga ulanish uchun MB bo‘lishi talab etiladi.

3.4. Talaba qizlar yakkalik bahslarida qatnashadi.

3.5. Professor-o'qituvchilar va ishchi xodimlar yakkalik hamda jamoaviy bahslarda yosh chegarasi (18-25, 26-35, 36-45 va 45+...) bo'yicha bellashadi.

3.6. Jamoaviy o'yinlarda har bir kafedra yoki bo'limlardan 2ta dan ishtirokchi qatnashadi.

3.7. Musobaqalar "Just dance: now" dasturi orqali tanlangan 3ta musiqadan iborat bo'lib, natijalarni dasturni o'zi hisoblab beradi. Umumiy hisobda eng yuqori ball to'plagan 3ta ishtirokchi yoki 3ta jamoa g'olib deb topiladi.

IV.Etika qoidalari va adolatli o'yin.

4.1. Fijital sport musobaqalarida ishtirokchilar o'zaro hurmat va professional axloq normalariga rioya qilishlari shart.

4.2. Hech qanday haqoratli so'zlar, tahdidlar yoki kamsituvchi munosabatga yo'l qo'yilmaydi.

4.3. O'yin davomida va undan tashqarida boshqalarga nisbatan xushmuomala bo'lish talab etiladi.

4.5. Jamoa a'zolari, hakamlar va boshqa ishtirokchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

4.6. Har qanday firibgarlik, o'yin qoidalarini buzish yoki nohalol usullardan foydalanish taqiqlanadi.

4.7. Ishtirokchilar barcha qoidalar va tashkilot talablariga qat'iy rioya qilishlari shart.

4.8. Jamoa ichida konstruktiv muloqot va bir-biriga yordam berish ruhida harakat qilish lozim.

4.9. Musobaqa tashkilotchilari tomonidan belgilangan qoidalarini buzgan ishtirokchilar yoki jamoa ma'lum jazo choralariga duchor bo'lishadi (ogohlantirish, jarima yoki musobaqadan chetlatish).

4.10. Musobaqa davomida turli muammolar paydo bo'lgan taqdirda, tashkilotchilar yoki maxsus birlashtirilgan hodimga xabar berish lozim.

V.Musobaqani moliyalashtirish va g'oliblarni taqdirlash.

4.1. Fijital just dance musobaqasida jamoaviy hamda yakka tartibda g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar I, II, III-o'rinlar bilan hamda turli xil nominatsiyalar bilan taqdirlanadi. Jamoada 2 ta ishtirokchi bo'ladi. Jami: 40 nafar (Talaba qizlar 10 nafar, professor-o'qituvchilar, ishchi xodimlar 30 nafar) ishtirokchilar taqdirlanadi.

4.2. Fijital Just dance musobaqasida jamoaviy hamda yakka tartibda g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti sport klubi va "Ijtomoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi tomonidan "8-mart xalqaro xotin qizlar kuni" bayrami munosabati bilan bayromana kayfiyat, turli xil nominatsiyalar hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi.

VI.Yakuniy qoidalar

5.1. Musobaqa ishtirokchilari va jamoalarning natijalari, jismoniy va aqliy qobiliyati, shuningdek tezlik tayyorgarligi monitoring qilinadi.

Kafedra mudiri

B.Musayev